

2020-yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Xorazm viloyatida jami 685,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 80,5 % ni tashkil etdi.

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
685,9 mlrd. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi - **8,7 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi -
60,7 %

Norasmiy sektor ulushi -
30,6 %

Jami qurilish ishlari hajmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 59,4 mlrd. so‘m ishlar bajarildi. Bu esa tarmoqning jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 8,7 % dan iborat ekanini hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 176,1 % ni tashkil etganini anglatadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari

hajmining 60,7 % i to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan 416,2 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 71,3 % ni tashkil etdi. Umumiy bajarilgan ishlarning 30,6 % i norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelib, 210,3 mlrd. so‘m bunyodkorliklar amalga oshirildi. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 89,5 % ni tashkil etganini ko‘rsatadi.


2020-yilning yanvar-aprel oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

2020-yil yanvar-aprel oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 176,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,3 % dan iborat bo'ldi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,5 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so`m)



**2020-yil
yanvar-aprel**

Xorazm viloyatida qurilish ishlari



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismini qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tashkil etadi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 69,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jamiga nisbatan 22,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 7,7 % to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan ulushi 0,9 % punktga ko'paydi.


2020-yil
yanvar-aprel

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi



- Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2020-yil
yanvar-aprel

Xorazm viloyatida qurilish ishlari


2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlardan iborat. Bunda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 78,4 % ni tashkil qilganini ko'rish mumkin.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,1 % ga o'sgan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringning o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 92,1 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
(mlrd. so`m)**




**2020-yil
yanvar-aprel**


Xorazm viloyatida qurilish ishlari

2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari (mlrd. so‘m)

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 639,6 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,3 % dan iborat bo‘ldi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 46,3 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil qildi.




2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarda bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari quyidagilardan iborat:


Bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahrida 201,9 mlrd. so'mni, Bog'ot tumanida 42,0 mlrd. so'mni, Urganch tumanida 61,8 mlrd. so'mni, Xonqa tumanida 54,1 mlrd. so'mni, Xiva tumanida 52,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
(mlrd. so'm)**



2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi, % da)

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmining viloyatda eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 29,4 % ni tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda bu ulush Urganch tumaniga 9,0 %, Xiva tumaniga 7,6 % va Yangiariq tumaniga 5,8 % dan to‘g‘ri keldi.




2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da.)


Qurilish ishlari eng yuqori o‘sish sur’ati quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi:

Bajarilgan qurilish ishlari jadal borishi tufayli o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Xonqa tumanida 119,3 % ni tashkil qildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da.



2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)



Shahar va tumanlarda binolar va inshootlarni qurish ishlari tahliliga e'tibor qaratilsa, Urganch shahrida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 29,1 mlrd. so'm ishlar bajarilgani qayd etildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 martaga ko'paydi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 133,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 72,4 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 39,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 82,6 % ga yetdi.

Urganch tumanida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 7,1 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 125,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 33,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 68,9 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 21,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari hajmi bajarilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 126,5 % ni tashkil qilgani e’tiborga molik.

Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi
Nashr uchun mas’ul: SH.Babajanov
Telefon: (0362) 224-65-22

2020-yil
yanvar-aprel

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

11